

UDK: 339.5

**KICHIK BIZNESNING SANOAT TARMOG'INING RIVOJLANISHIGA
TA'SIRINI STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI***Yuldasheva Nihola Tohir qizi**Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar**instituti tayanch doktoranti (PhD)**E-mail: nihola.yuldasheva98@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatida sanoatning rivojlanish ko'rsatkichlari va unga ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, sanoat tarmog'ining rivojlanishida kichik biznes va xusisuy tadbirkorlikning o'rni iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida baholangan. Shuningdek, sanoatning rivojlanishi hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari rivojlanishiga hamda natijada hudud aholisi farovonligiga qay darajada ta'sir qilishi ilmiy asoslangan. Shuningdek, sanoat tarmog'ini rivojlantirishda xorij tajribalari keng tadqiq etilib, ular bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlar erishgan yutuq va bergen ilmiy xulosa va takliflarini milliy iqtisodiyotimizga moslashtirib, ulardan mamlakatimiz hududlarini kompleks rivojlantirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarda foydalanish bo'yicha atroflicha to'xtalib o'tilgan. Turli statistik usullar yordamida olib borilgan tadqiqot va tahlil natijalaridan hududni rivojlantirishda sanoat, xusan, kimyo sanoatining ta'siridan kelib chiqib, ushbu tarmoqni yanada kengroq miqyosda rivojlantirish bo'yicha ayrim taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy tarmoqlar, sanoat statistikasi, kichik biznes, kimyo sanoati, iqtisodiy-statistik tahlil usullari, statistik guruhlash, ekspert baholash, tahlil va sintez.

Аннотация: В данной статье статистически оценены показатели развития промышленности Ташкентской области и факторы, влияющие на нее, а также оценена роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии производственной сети с использованием методов экономико-статистического анализа. Также научно обосновано, как развитие отрасли влияет на развитие макроэкономических показателей региона и, как следствие, на благосостояние населения региона. Кроме того, широко изучен зарубежный опыт развития промышленного сектора, адаптированы к условиям нашей национальной экономики достижения, научные выводы и предложения зарубежных экономистов, проведено комплексное исследование по использованию их в экономике. приняты меры по комплексному развитию регионов нашей страны. На основе результатов исследований и анализа, проведенных с использованием различных статистических методов, основанных на влиянии отрасли, в



частности химической промышленности, на развитие региона, сделаны некоторые предложения и замечания по развитию этой отрасли. были сделаны более широкие масштабы.

Ключевые слова: Национальная экономика, макроэкономические показатели, валовой региональный продукт, отрасли экономики, статистика промышленности, малый бизнес, химическая промышленность, методы экономико-статистического анализа, статистическая группировка, экспертная оценка, анализ и синтез.

Abstract: This article statistically evaluates the indicators of industrial development in the Tashkent region and the factors influencing it, and also evaluates the role of small businesses and private entrepreneurship in the development of the production network using methods of economic and statistical analysis. It is also scientifically substantiated how the development of the industry affects the development of macroeconomic indicators of the region and, as a consequence, the well-being of the population of the region. In addition, foreign experience in the development of the industrial sector has been widely studied, achievements, scientific conclusions and proposals of foreign economists have been adapted to the conditions of our national economy, and a comprehensive study has been conducted on their use in the economy. measures have been taken for the integrated development of the regions of our country. Based on the results of research and analysis carried out using various statistical methods based on the influence of the industry, in particular the chemical industry, on the development of the region, some suggestions and comments are made on the development of this industry. were made on a wider scale.

Key words: National economy, macroeconomic indicators, gross regional product, economic sectors, industrial statistics, small business, chemical industry, methods of economic and statistical analysis, statistical grouping, expert assessment, analysis and synthesis.

KIRISH

Sanoat tarmog‘i dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy yuksalishida eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Sanoat tarmog‘ini rivojlantirishda, o‘z navbatida, bozor talablaridan kelib chiqib tezkor moslanuvchan va moliyaviy risklarga bardoshli hisoblangan hamda ishsizlik muammosini asosiy yechimi bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi yillar davomida yanada yuksalib kelmoqda.

Iqtisodiyot aniq raqamlar, hisob-kitoblar bilan birga, odamlar turmush tarzida yuz berayotgan real o‘zgarishlar, natijadorlikni xush ko‘radi. Davlat manfaatlarigagina xizmat qiladigan iqtisodiyot rivojlanishdan to‘xtaydi. Oxirgi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohot va yangilanishlar avvalida iqtisodiyotimizdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari qamrovini kengaytirish, uning

bevosita aholi turmushiga ta'sirini oshirishga e'tibor qaratilayotgani boisi ham shundan¹.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining² 29-maqсадига ко'ра, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagи ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagи PF-5780-son Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagи PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investisiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi"⁴

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o'tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo'llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan

¹ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz

³ D.A. Ismailov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021
ISSN: 2181-1601

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29.12.2018 y.

qo'llab-quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish, uni rag'batlantirishga bag'ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda⁵.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, ishbilarmonlik muhiti sifatining yaxshilanishi, tadbirkorlikni rivojlantirishga yangicha yondashuvning vujudga kelishi "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda. Ushbu kontseptsiyaning ta'rifidagi noaniqlik madaniyat, siyosat, mamlakatlar an'analari, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotidagi farqlardan kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtida global iqtisodiyotni qayta qurish va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq holda, neft-kimyo sanoatining uchinchi tuzilmasi aktivlarni qayta tashkil etishning asosiy biznesga kontsentratsiyasini va kapitalni ko'p talab qiladigan texnologiyadan texnologiyaga qadar rivojlanishni o'z ichiga oladi. Mamlakat iqtisodiyotiga har tomonlama sanoat tarmog'ining rivojlanish darajasiga qarab baho berilishi ushbu tarmoqning iqtisodiyotda qaydar jada tutgan o'rnini aniqlab beradi⁶[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Rossiyalik iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bozor munosabatlarining shakllanishi, ishbilarmonlik muhiti sifatining yaxshilanishi, tadbirkorlikni rivojlantirishga yangicha yondashuvning vujudga kelishi "tadbirkorlik faoliyati" tushunchasini yangicha talqin qilishi aniqlangan. Ushbu kontseptsiyaning ta'rifidagi noaniqlik madaniyat, siyosat, mamlakatlar an'analari, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish amaliyotidagi farqlardan kelib chiqadi⁷.

Yana bir rossiyalik iqtisodchi olim M.M. Mahmudova har qanday davlat iqtisodiyotida kichik biznes uning rivojlanishini belgilovchi eng muhim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes o'rta sinfni shakllantirish, aholining salmoqli qismini ish bilan ta'minlash, mamlakat byudjetini to'ldirishda ulkan rol o'ynaydi degan fikrni bildirgan⁸.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida kichik biznes instituti har qanday mamlakat iqtisodiy tuzilishining ajralmas va muhim qismidir. Kichik biznes raqobat muhitini shakllantirishga hissa qo'shami, iste'molchilar talabiga moslashuvchanlik bilan javob

⁵ Bakhtiyorova, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. Достижения науки и образования, (5 (46)).

⁶ Li Q., Song J., Wang E., Hu H., Zhang J., Wang Y., 2014, Economic growth and pollutant emissions in China: a spatial econometric analysis. Stochastic environmental research and risk assessment, 28(2), 429-442, DOI: 10.1007/s00477-013-0762-6.

⁷ Х.П. Абулкосимов и др. Регулирование деятельности субъектов малого предпринимательства Р32 в начале XXI века: мировой опыт: коллективная монография—Томск: Издательский Дом Томского государственного университета, 2020. – 332 с. ISBN 978-5-94621-909-9

⁸ М.М. Махмудова, А.М. Королева. Анализ современного состояния малого предпринимательства в тюменской области. Вестник пермского университета. 2015 г. Экономика Вып. 1(24).

beradi, investitsiyalar rivojlanishini jadallashtirishga intiladi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning innovatsion faolligiga ta'sir qiladi, aholi bandligini oshirishga yordam beradi⁹.

Mahalliy olimlarimizdan: H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov¹⁰[8]lar mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan.

B.K.G'oyibnazarov, H.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatova¹¹[9]lar KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud bo'lgan muammolar va ulani bartaraf etish yo'llari, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan.

B.T. Bayxonov¹²[7] tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investisiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi.

Gruziyalik iqtisodchi olim Iamze Surmanidze kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir degan fikrni bildirgan. Bu mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini va yalpi milliy mahsulot tarkibini belgilaydi. Ishsizlik, aholining kam daromadliligi, ishlab chiqarish yetishmasligi kabi keskin hodisalar fonida kichik biznesni rivojlantirish qo'shimcha ish o'rnlari yaratish, sanoat va hududiy monopoliyalarni bartaraf etish, innovatsiyalarni joriy etish orqali ushbu muammolarni hal etishga ko'maklashmoqda. Umuman olganda, ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish mumkin¹³.

Dr. Aleksandra Janeska-Iliev va boshqalar kichik biznes - har qanday iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishi, ish o'rnlari va daromadlar yaratish, raqobatni rag'batlantirish, innovatsiyalar manbalari, tadbirkorlik subyektlariga imkoniyatlar yaratish va hokazodegan fikrni keltirib o'tgan¹⁴.

Ukrainalik iqtisodchi olim O. Zvarych Bozor iqtisodiyotining ajralmas tarmog'i sifatida tadbirkorlik aniq mintaqaviy e'tiborga ega, chunki kichik biznes sub'ektlari o'z faoliyatini birinchi navbatda mahalliy bozorlar ehtiyojlaridan, mahalliy talabning sig'imi va tarkibidan kelib chiqqan holda rejalashtiradilar. Kichik biznes hududiy

⁹ Е.И.Суханова. Статистический анализ и моделирование влияния социально-экономических факторов на уровень развития малого бизнеса в регионах Российской Федерации. www.fundamental-research.ru/ru

¹⁰ Abulqosimov H.P., Qulmatov A.A. O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llari. Monografiya. – T.: Universitet, 2015. – 126 b.

¹¹ G'oyibnazarov B.K., Rahmonov H.O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 184 b.

¹² Bayxonov B.T. "O'zbekiston iqtisodiyotida investisiyalararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. – 76 b.

¹³ Iamze Surmanidze. Statistical analysis of the key indicators of small business (on the example of Adjara). Globalization And Business #9, 2020

¹⁴ A. J. Iliev. Factors affecting growth of small business: the case of a developing country having experienced transition. European Scientific Journal October 2015 edition vol.11, No.28 ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431

miqyosda rivojlanish omili bo‘lishi, hududning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi kerak¹⁵.

COVID-19 pandemiyasi 21-asrda insoniyat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladigan va insoniyatning barqaror rivojlanishiga to‘sinqinlik qiluvchi dunyodagi eng yuqori tarqalish va sog‘liqni saqlashga eng keng ta’sir ko‘rsatadigan favqulodda vaziyatlardan biriga aylandi¹⁶.

Xitoylik iqtisodchi olimlardan Y. Yuan kichik biznes milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi va Xitoy yalpi ichki mahsulotining 50 foizdan ortig‘ini tashkil qilishini aytgan¹⁷.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida kimyo sanoatini tutgan o‘rnini yanada kengroq yoritish uchun, ushbu tarmoqning asosiy jihatlariga e’tibor qaratish zarur hisoblanadi. Ma’lumki, sanoat tarmog‘i ishlab chiqaradigan sanoati va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga bo‘linadi. Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to‘liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o‘z ichiga oladi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi. Sanoat tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 25,5 trln. so‘nni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlardan tortib to xizmatlar sohasida ham tarmoqda ishlab chiqariladigan kimyoviy mahsulotlar nafaqat iqtisodiyotda, balki, ijtimoiy jihatdan hayotimizning barcha jabhalarida beqiyos ahamiyatga egadir¹⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kimyo sanoatining rivojlanishiga kichik biznesning ta’sirini statistik tahlil qilish va statistik ma’lumotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida olib borilgan tadqiqot jarayonida statistik jadval va grafiklar, induksiya va deduksiya, statistik guruqlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, dinamik qatorlar va iqtisodiy indekslar kabi turli statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi.

¹⁵ O. Zvarych. Evaluation of small business influenceon the economic development of the region. Baltic Journal of Economic Studies. Vol. 3, No. 5, 2017. DOI: <http://dx.doi.org/10.30525/2256-0742/2017-3-5-151-156. www.researchgate.net>.

¹⁶ Raghavan, A., Demircioglu, M. A., and Oratzaliyev, S. (2021). COVID-19 and the new normal of organizations and employees: An overview. Sustainability 13, 11942. doi:10.3390/su132111942

¹⁷ Y. Yuan. (2013). The exploration of the causes of financing difficulties of China’s small and micro businesses. Int. Bus. Manag. 3, 231–247.

¹⁸ Yuldasheva N.T. O‘zbekistonda kimyo sanoati rivojlanish jarayonlarining iqtisodiy-statistik tahlili. O‘zbekiston Statistika axborotnomasi. 2023-yil 2-son. www.statmirror.uz rasmiy sayti.

Ushbu tadqiqot ishimizning obyekti bo‘lib, mamlakatimizda kimyo sanoati rivojlanishida kichik biznes va xususiy korxonalarining o‘rni va ta’sir darajasiga statistik baho berish, ularning faoliyati samaradorligini ifodalovchi yalpi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularni xalqaro standartlarga moslashtirishning asosiy yo‘nalishlari tanlangan.

Ushbu tadqiqotni o‘tkazishdan maqsad, yurtimizda kimyo sanoatini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlarning sanoat tarmog’iga ta’sirini statistik baholash va kelgusi davrlar uchun strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish maqsadida zaruriy prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni statistik ahamiyatlilik darajasi bo‘yicha munosiblaridan mamlakatimizda foydalanish yo‘nalishlarini belgilab berishdan iborat hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Toshkent viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari yillar davomida ijobjiy o‘sish sur’atlariga ega bo‘lib kelmoqda. Buni YaHM, sanoat, qishloq xo‘jaligi va tashqi savdo ko‘rsatkichlarida kuzatishimiz mumkin bo‘ladi(1-jadval).

1-jadval.

Toshkent viloyatining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi %da¹⁹.


	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
YaHM	106,5	106,2	105,9	104,7	101,0	106,8	107,3	102,9	110,7	105,1
Sanoat	112,1	106,4	108,1	105,6	102,7	114,8	107,3	103,8	112,8	105,7
Qishloq xo‘jaligi	103,3	104,0	103,7	101,6	97,1	99,2	100,6	102,1	104,0	108,6
Investitsiya	144,0	114,8	99,3	87,0	118,4	139,9	158,5	82,8	120,3	110,7
Xizmatlar	118,4	117,2	113,2	116,9	105,1	107,0	113,4	103,4	117,8	112,1
Eksport	95,7	115,2	85,5	67,4	127,5	109,2	116,0	100,3	112,6	101,6
Import	136,2	117,7	74,8	131,5	94,0	129,1	127,5	95,0	117,1	107,3

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Toshkent viloyatida YaHM hajmi 2013-2022-yillar davomida ijobjiy darajada o‘sib kelgan (mos ravishda 106,6% dan 105,1% gacha). Shu bilan birga, sanoat, qishloq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar va xizmatlarda ham ijobjiy o‘sishni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.eksportning o‘sishiga nisbatan importning yuqori darajada o‘sishi mamlakatimis tashqi savdo balansiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsada, umumiy holat eksportning o‘sishini ijobjiy holat deb aytsa bo‘ladi.

Toshkent viloyatida 2022- yilda sanoat mahsuloti hajmi 93 002,3 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,1 %ni

¹⁹ www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tashkil etgan. Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Toshkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 90,6%) Parkent (86,6 %), Quyi Chirchiq (73,1 %) va Zangiota (86,1 %) tumanlarida hamda eng kichik ulush Olmaliq (2,1%), Bekobod (2,1 %) shaharlarida kuzatilgan(1-rasm)²⁰.



1-rasm. 2022- yilda hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da²¹.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq (242 169,8 ming so'm), Chirchiq (183 709,4 ming so'm) va Bekobod (105 474,1 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (31 354,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda. Buni sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi orqali tahlil uchun yanada qukay ko'rinishga keltirishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval .

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi, %da²²

Худудлар	Улуси	Худудлар	Улуси
Nurafshon sh	1,8	Bo'ka	0,4
Olmaliq sh	35,6	Quyi Chirchiq	1,0
Angren sh	4,7	Zangiota	3,3
Bekobod sh	11,5	Yuqori Chirchiq	2,8
Ohangaron sh	5,1	Qibray	7,4
Chirchiq sh	8,0	Parkent	0,5

²⁰ www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


²¹ www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

²² www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yangiyo‘l sh	0,8	Piskent	0,7
Oqqo‘rg‘on	0,9	O‘rta Chirchiq	1,2
Ohangaron	6,0	Chinoz	0,8
Bekobod	0,3	Yangiyo‘l	2,0
Bo‘stonliq	2,6	Toshkent	2,6

Viloyat bo‘yicha ushbu korxonalarining ishlab chiqarish hajmi eng ko‘p Olmaliq (salmog‘i 35,6 %), Bekobod (11,5 %), Chirchiq (8,0 %) shaharlari, Qibray (7,4 %) va Ohangaron (6,0 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi. O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi eng yuqori ko‘rsatkichi Chinoz (120,2 %), Ohangaron (113,7 %) va O‘rta Chirchiq (119,4 %) tumanlarida kuzatilgan.

Albatta, bozor iqtisodiyoti davrida kichik biznes subyektlari faoliyatini iqtisodiyotga ta’siri juda kuchli bo‘lganligi sababli, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan korxonalarining demografik holatini tahli qilish orqali, sohaga ajratilayotgan imtiyozlardan qay darajada foydalanilayotganligini aniqlab olsa bo‘ladi(2-rasm).




2-rasm. Viloyatda kichik biznes korxonalarining demografik holati, birlikda²³.

Yuqoridagi jadvaldan, Toshkent viloyatida 2022-yilda ro‘yhatga olingan korxonalar soni qariyb 53961 ta ochilgan bo‘lsa-da, nofaol korxonalar soni 4816 tani tashkil qilgan, 1212 ta korxoza tugatilganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Bunda, kichik biznes korxonalarini faoliyat yuritishi va ular faoliyatining to‘xtalishi va bunga

²³ www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

asosiy sabablarni tahlil qilish orqali ular faoliyati barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Ushbu yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi tarmoqlarning istiqboldagi holatiga baho berish imkoniyatini oshiradi(3-rasm).



3-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi²⁴.

Yuqorida jadvaldan ko'rindaniki, eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,8 %i), sanoatda (19,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12,7 %) sohalarida tashkil etilgan.

2022- yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlari tomonidan:

- YaHMning 46,5 %i (2021- yilda 45,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 18 549,3 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 19,9 %) tashkil qilgan;

- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi 30 568,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 102,5 % (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi yalpi mahsulotining 86,9 %) tashkil qilgan;

- 13 308,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (viloyat bo'yicha umumiy investitsiyalar hajmining 38,1 %i) o'zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 81,5 %ni tashkil qilgan;

- 9 111,1 mlrd. so'mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari

²⁴ www.toshvilstat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

hajmining 75,0 %i) bajarildi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,8 %ga oshgan;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga kamaygan, (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 56,1 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 1,4 %ga (umumiyo‘lovchi aylanmasining 97,8 %) ko‘paygan;

- chakana tovar aylanmasi umumiyo‘hajmining 76,1 %ini yoki 24 098,4 mld. so‘mini (o‘sish 106,5 %) kichik biznes korxonalari shakllantirgan;

- xizmatlar umumiyo‘hajmining 68,6 %i yoki 17 845,4 mld. so‘mi (o‘sish 108,9 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi;

- 616,9 mln. AQSh dollarasi (umumiyo‘eksport hajmining 30,1 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 1 719,5 mln. AQSh dollarasi (umumiyo‘import hajmining 48,4 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kimyo sanoatini iqtisodiy-statistik tahlil qilish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimiz yakuniy natijasi sifatida sohaga tegishli statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish ma’lumotlar bazasini yaratish orqali quyidagilarning rivojlanishiga ijobjiy ta’sir qilishi aniqlandi:

kimyo sanoatining iqtisodiyotning real sektori korxonalari faoliyatidagi ahamiyatini inobatga olib, ushbu tarmoq bo‘yicha shakllantirilayotgan statistik ko‘rsatkichlarni xalqaro standartlarga mos va obyektiv ravishda shakllantirish orqali tarmoq haqida axborot iste’molchilariga yetarli ma’lumotlarni sifatli va tezkor yetkazib berish orqali investitsiya oqimini ortishiga ijobjiy ta’sir qilishi mumkin;

kimyo sanoati korxonalari faoliyatini tadqiq qiluvchi iqtisodchi olimlar uchun yetarli darajada ma’luotlar manbai shakllangan bo‘lar edi va bu ma’lumotlar asosida boshqa xorijiy davlatlar ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlillar o‘tkazish mumkin bo‘lar edi;

statistika yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga xalqaro standartlar asosida bilim olishlarida yetarli darajada ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan bo‘lar edi va bu talabalarning amaliy tajribalarini xalqaro standartlarga to‘liq mos holatda bo‘lishini ta’milagan bo‘lar edi.

Shuningdek, mahalliylashtirish dasturlari asosida kimyo sanoatida ayrim import qilinayotgan mahsulotlarning mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yilishi yangi ishchi o‘rinlari yaratilishiga zamin yaratish bilan birga qishloq xo‘jaligini arzon kimyoviy minerallar bilan ta’milagan. Kimyo sanoati tarmog‘ida bu kabi mahsulotlarni mahalliylashtirishni kengaytirish mamlakatimizning valyuta pozitsiyasining ijobjiy holatini barqarorlashuvini ta’milagan bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Li Q., Song J., Wang E., Hu H., Zhang J., Wang Y., 2014, Economic growth and pollutant emissions in China: a spatial econometric analysis. Stochastic environmental research and risk assessment, 28(2), 429-442, DOI: 10.1007/s00477-013-0762-6.
2. Ertek, E., (2014), Kimya Sektörü Raporu, TSKB Ekonomik Araştırmalar, <http://www.tskb.com.tr> (5.03.2017).
3. www.stat.uz rasmiy sayt ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni. <http://lex.uz>
5. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. 2022. The Importance of Chemical Research to the U.S. Economy. Washington, DC: The National Academies Press. <https://doi.org/10.17226/26568>.
6. Hounshell, D. A., and J. K. Smith. 1988. Science and Corporate Strategy: Du Pont R&D, 1902-1980. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
7. Arora, A., and A. Gambardella. 2010. Implications for Energy Innovation from the Chemical Industry. Working Paper 15676. National Bureau of Economic Research. <https://www.nber.org>
8. Srodonwka R.O. Economic and Environmental Efficiency of the Chemical Industry in Europe in 2010-2016. Middle pomeranian scientific society of the environment protection. Volume 21. Year 2019 ISSN 1506-218X p.1393-1404
9. Cefic. (2017). Facts & Figures 2017 of the European Chemical Industry. Cefic: Brussels.
10. Garcia-López M.À., Muñiz I., 2013, Urban spatial structure, agglomeration economies, and economic growth in Barcelona: An intra-metropolitan perspective, Papers in Regional Science, 92(3), 515-534, DOI: 10.1111/j.1435-5957.2011.00409.x
11. Arias M., Atienza M., Cademartori J., 2013, Large mining enterprises and regional development in Chile: between the enclave and cluster, Journal of Economic Geography, 14(1), 73-95, DOI: 10.1093/jeg/lbt007
12. Вдовенко З.В. Химический комплекс: анализ современного состояния и особенностей развития. Кемерово, 2005 г. 45-47 с.
13. B.B. Muhammadjonov. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik sanoat hududlari rivojlanishining istiqbollari. Journal of Academic Research in Educational Sciences – Google Scholar 2022.
14. Shukurov U. SH. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning mintaqqa iqtisodiyotiga ta'siri. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601. P. 154-163..
15. Адамов В.Е., Статистика промышленности, Учебник.-М.:Финансы и статистика, 1987г. 76-79 с.